



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

IQTISOD YO'NALISHI TALABALARINI XORIJIY TILGA O'QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVNING PEDAGOGIK SALOHİYATI

Mamadjanova Shoxida Nemat qizi
Namangan davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Maqolada iqtisod yo'nalishi talabalarini xorijiy tilga o'qitishda metakognitiv yondashuvning pedagogik salohiyati nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Metakognitsiya, o'zini o'zi boshqarib o'rganish hamda kommunikativ ta'lim konsepsiyalariga oid klassik va zamonaviy tadqiqotlar asosida metakognitiv yondashuvning yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, metakognitiv strategiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarning o'quv faoliyatini ongli rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda ularning kasbiy yo'naltirilgan xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: metakognitiv yondashuv, xorijiy til ta'limi, yozma nutq, og'zaki nutq, iqtisod yo'nalishi talabarlari, metakognitiv strategiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ МЕТАКОГНИТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Мамаджанова Шохиданемат кизи
Наманганский государственный университет, докторант

Аннотация

В статье представлен теоретико-методологический анализ педагогического потенциала метакогнитивного подхода в обучении иностранному языку с акцентом на развитие письменных и устных речевых умений студентов экономических направлений. На основе классических и современных исследований в области метакогниции, саморегулируемого обучения и коммуникативной методики обучения языкам обосновывается роль метакогнитивных стратегий как ключевого фактора осознанного планирования, контроля и оценки учебной деятельности. Показано, что применение метакогнитивного подхода способствует формированию учебной автономии, развитию рефлексивного мышления и повышению коммуникативной компетентности обучающихся в профессионально ориентированном иноязычном образовании. Особое внимание уделяется значению метакогнитивной осознанности в организации письменной речи и управлении устным общением в академическом и профессиональном контексте.

Ключевые слова: метакогнитивный подход, обучение иностранному языку, письменная речь, устная речь, студенты экономических направлений, метакогнитивные стратегии, коммуникативная компетентность.

PEDAGOGICAL POTENTIAL OF THE METACOGNITIVE APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO ECONOMICS STUDENTS

Mamadjanova Shokhida Nemat qizi
Namangan State University, 2nd Year Doctoral Student

Abstract

This article presents a theoretical and methodological analysis of the pedagogical

potential of the metacognitive approach in foreign language education, with particular emphasis on the development of writing and speaking skills among economics students. Drawing on classical and contemporary studies in metacognition, self-regulated learning, and communicative language teaching, the paper conceptualizes metacognition as a core mechanism for conscious planning, monitoring, and evaluation of language learning activities. The analysis demonstrates that the integration of metacognitive strategies into foreign language instruction enhances learners' autonomy, reflective thinking, and communicative competence, especially in professionally oriented contexts. Special attention is given to the role of metacognitive awareness in organizing written discourse and managing oral communication in academic and professional settings. The study argues that the metacognitive approach provides a solid theoretical foundation for aligning language instruction with the cognitive and professional needs of economics students.

Keywords: metacognitive approach, foreign language education, writing skills, speaking skills, economics students, metacognitive strategies, communicative.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish mazmuni va texnologiyalarini yangilash zarurati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, iqtisod yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'zlashtirish nafaqat kommunikativ ehtiyoj, balki professional faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy reproduktiv yondashuvlarga asoslangan ta'lim jarayoni talabalarni mustaqil fikrlashga, o'z nutq faoliyatini ongli ravishda boshqarishga, yozma va og'zaki nutqda strategik qarorlar qabul qilishga yetarli darajada tayyorlamaydi. Shu bois xorijiy til ta'limida shaxsga yo'naltirilgan, reflektiv va ongli o'rganishga asoslangan yondashuvlarni joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Mazkur kontekstda metakognitiv yondashuv xorijiy tilni o'rganish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qodir bo'lgan konseptual asos sifatida e'tirof etiladi. Metakognitsiya tushunchasi ilk bor kognitiv psixologiya doirasida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda u til ta'limi, ayniqsa, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalalarida muhim metodologik vositaga aylanmoqda. Talabani o'z fikrlash jarayonini rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi bilan bog'liq bo'lgan metakognitiv faoliyat xorijiy tilni o'zlashtirishda barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolaning maqsadi iqtisod yo'nalishi talabalari uchun xorijiy til ta'limida metakognitiv yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Maqolada metakognitsiya nazariyasining ilmiy manbalardagi talqinlari, uning yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishdagi o'rni hamda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metakognitsiya tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi, avvalo, kognitiv rivojlanish nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu yo'nalishdagi fundamental qarashlar amerikalik psixolog John H. Flavell nomi bilan uzviy aloqadordir. Olim metakognitsiyani shaxsning o'z kognitiv jarayonlari haqidagi bilimi va ushbu jarayonlarni boshqarish qobiliyati sifatida talqin etadi. Flavellga ko'ra, o'quv faoliyatida muvaffaqiyat faqat bilim hajmi bilan emas, balki ushbu bilimlardan qanday foydalanilayotganini anglash darajasi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv xorijiy tilni o'rganishda, ayniqsa, murakkab nutqiy vazifalarni bajarishda o'quvchining faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Metakognitiv yondashuvning pedagogik mohiyati ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu borada L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Vygotskiy ta'lim jarayonida o'quvchining o'z faoliyatini anglash va boshqarishga o'tishini ichki nutq va refleksiya bilan bog'laydi. Metakognitiv strategiyalar aynan shu jarayonda, ya'ni tashqi boshqaruvdan ichki o'zini boshqarishga o'tishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xorijiy til ta'limida bu holat talabani yozma va og'zaki nutqni ishlab chiqish jarayonida mustaqil strategiyalarni tanlashi va

ulardan ongli foydalanishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Til o'rganish jarayonida o'z-o'zini boshqarish masalasi A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida ham markaziy o'rin egallaydi. Bandura o'rganishni kuzatish, o'z-o'zini baholash va o'z faoliyatini nazorat qilish orqali amalga oshadigan faol jarayon sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv metakognitiv strategiyalar bilan uyg'unlashib, talabani passiv bilim oluvchidan faol o'rganuvchi subyektga aylantirishga xizmat qiladi. Xususan, xorijiy tilda nutq tuzish jarayonida o'z xatolarini anglash va ularni tuzatish qobiliyati metakognitiv refleksiya orqali shakllanadi.

Xorijiy tilni o'rganishda strategik yondashuv masalalari R.L. Oxford tadqiqotlarida batafsil yoritilgan bo'lib, u til o'rganish strategiyalarini kognitiv, metakognitiv, affektiv va ijtimoiy guruhlariga ajratadi hamda aynan metakognitiv strategiyalarni o'rganish jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash bilan bog'laydi. Oxfordning fikricha, yuqori darajadagi til kompetensiyasi metakognitiv ong rivoji bilan bevosita aloqador bo'lib, bu holat yozma va og'zaki nutqda izchillik hamda mantiqiylikni ta'minlaydi.

Yozma nutqni rivojlantirish kontekstida metakognitiv yondashuv B.J. Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini boshqarib o'rganish modeli orqali chuqur asoslab berilgan. Zimmerman yozma faoliyatni rejalashtirish, bajarish va refleksiya bosqichlari orqali amalga oshadigan murakkab jarayon sifatida talqin qiladi. Ushbu model xorijiy til ta'limida yozma matn yaratish jarayonini mexanik mashq emas, balki ongli, bosqichma-bosqich tashkil etiladigan intellektual faoliyat sifatida ko'rishga imkon beradi.

Nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalasida kognitiv yondashuv J.R. Andersonning adaptiv nazorat nazariyasi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Anderson nutq faoliyatini avtomatlashtirilgan va ongli jarayonlarning o'zaro ta'siri sifatida izohlaydi. Metakognitiv yondashuv aynan shu ikki darajani muvofiqlashtirishga xizmat qilib, talabaga nutq jarayonida strategik tanlovlar qilish imkonini beradi.

O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham metakognitiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyati tobora kengroq yoritilmoqda. Xususan, xorijiy tillarni o'qitishda talabaning mustaqil fikrlashi, reflektiv faoliyati va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Mahalliy ilmiy ishlarda metakognitiv yondashuv kompetensiyaviy ta'lim paradigmasi bilan uyg'un holda talqin qilinib, uni iqtisod yo'nalishi talabalarining kasbiy nutqini shakllantirishda qo'llash istiqbollari asoslab berilmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar metakognitiv yondashuv xorijiy til ta'limida, xususan, iqtisod yo'nalishi talabalari uchun yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv talabaning o'quv faoliyatini ongli boshqarishiga, nutqiy vazifalarni strategik asosda bajarishiga hamda tilni kasbiy faoliyat vositasi sifatida samarali qo'llashiga xizmat qiladi.

METODLAR

Tadqiqot metodologiyasi xorijiy til ta'limida metakognitiv yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, unda taqqoslash, konseptual tahlil, pedagogik modellar va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida metakognitiv yondashuvning yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdagi nazariy asoslari aniqlashtirildi hamda ularning iqtisod yo'nalishi talabalariga moslashuv mexanizmlari izchil yoritildi.

Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar integratsiyasi tanlandi. Chunki metakognitiv yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra faqat bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki talabaning o'quv faoliyatini ongli rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, metodologik tahlilda xorijiy tilni o'rganish jarayoni uzluksiz refleksiya va o'zini o'zi boshqarish bilan tavsiflanadigan dinamik tizim sifatida qaraldi.

Yozma nutqni rivojlantirish metodologiyasi til faoliyatining mahsuldor turi sifatida yozma matn yaratish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga tayanadi. Bu jarayonda metakognitiv yondashuv yozma ishni rejalashtirish, mazmunni strukturalash, til vositalarini ongli tanlash hamda yakuniy natijani baholashni nazarda tutadi. Metodologik tahlil shuni ko'rsatadiki, yozma nutq faqat grammatik to'g'rilik bilan emas, balki mantiqiylik, uslubiy moslik va kommunikativ maqsadga yo'naltirilganlik bilan ham belgilanadi.

Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodologiyasi esa nutqiy vaziyatlarni ongli idrok etish va ularga mos strategiyalarni tanlashga asoslanadi. Metakognitiv yondashuv bu jarayonda talabani faqat gapirishga emas, balki nutq jarayonini ichki nazorat qilishga, o'z fikrini rejalashtirishga va auditoriya reaksiyasini hisobga olishga o'rgatadi. Metodologik jihatdan bu holat og'zaki nutqni spontan faoliyat emas, balki ongli boshqariladigan jarayon sifatida qarash imkonini beradi.

Shuningdek, maqolada tahlil qilingan metodologik asoslar iqtisod yo'nalishi talabalarining kasbiy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilindi. Chunki iqtisod sohasida xorijiy tilda yozma va og'zaki muloqot ko'nikmalari analitik fikrlashni, aniq dalillashni va terminologik aniqlikni talab qiladi. Metakognitiv yondashuv aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodologik vosita sifatida asoslandi.

MUHOKAMA

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, metakognitiv yondashuv xorijiy til ta'limida yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishda universal metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq turli tadqiqotchilar ushbu yondashuvni turlicha talqin qiladilar va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini har xil konseptual modellar asosida izohlaydilar. Ayrim ishlarda metakognitsiya o'rganish strategiyalarining tarkibiy qismi sifatida qaralsa, boshqalarida u mustaqil pedagogik paradigma sifatida e'tirof etiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda metakognitiv yondashuv ko'pincha o'z-o'zini boshqarib o'rganish, akademik yozuv va akademik nutq bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bu ishlarda asosiy e'tibor talabaning reflektiv faoliyatiga, o'quv jarayonida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishiga va o'z o'rganish jarayonini baholashiga qaratiladi. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u talabaning uzoq muddatli ta'lim natijalariga erishishini ta'minlaydi.

Mahalliy, xususan, o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa metakognitiv yondashuv ko'proq kompetensiyaviy ta'lim doirasida talqin qilinadi. Bu ishlarda xorijiy tilni kasbiy faoliyat bilan integratsiyalash, fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish va talabaning amaliy nutqiy tayyorgarligini oshirish masalalari ustuvor hisoblanadi. Mazkur yondashuv iqtisod yo'nalishi talabalarining ehtiyojlariga mos kelishi bilan ajralib turadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, metakognitiv yondashuvning samaradorligi uni o'qitish mazmuni va texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish darajasiga bog'liq. Agar metakognitiv strategiyalar izchil va tizimli ravishda joriy etilsa, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalari chuqurroq va barqarorroq shakllanadi. Aks holda metakognitsiya faqat nazariy tushuncha sifatida qolib ketishi mumkin.

Shu bilan birga, metakognitiv yondashuvning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, u yuqori darajadagi o'qituvchi kompetensiyasini, metodik tayyorgarlikni va ta'lim jarayonini puxta rejalashtirishni talab qiladi. Biroq ushbu cheklovlar yondashuvning ilmiy va pedagogik ahamiyatini kamaytirmaydi, aksincha, uni yanada chuqurroq o'rganish va moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, iqtisod yo'nalishi talabalarining xorijiy tilda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda metakognitiv yondashuv muhim nazariy-metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv talabaning o'quv faoliyatini ongli boshqarishga, nutqiy jarayonlarda strategik qarorlar qabul qilishga va tilni kasbiy muloqot vositasi sifatida samarali qo'llashga imkon yaratadi.

Maqolada o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, metakognitiv yondashuv xorijiy til ta'limini faqat bilimlarni uzatish jarayoni sifatida emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida qarashga imkon beradi. Ayniqsa, iqtisod yo'nalishi talabalarida yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishda ushbu yondashuvning pedagogik imkoniyatlari katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kelgusida metakognitiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan nazariy xulosalar xorijiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quv dasturlari va darsliklar mazmunini boyitish hamda oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni chuqurlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Flavell J. H. Metakognitsiya va kognitiv monitoring: kognitiv-rivojlanish tadqiqotlarining yangi sohasi // *American Psychologist*. — 1979. — 34-jild, 10-son. — B. 906–911.
2. Vygotskiy L. S. Jamiyatda tafakkur: oliy psixik jarayonlarning rivojlanishi. — Kembrij, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 b.
3. Bandura A. O'z-o'ziga ishonch (self-efficacy): nazoratni amalga oshirish. — Nyu-York: W. H. Freeman, 1997. — 604 b.
4. Zimmerman B. J. O'zini-o'zi boshqaruvchi o'quvchiga aylanish: umumiy ko'rinish // *Theory Into Practice*. — 2002. — 41-jild, 2-son. — B. 64–70.
5. Anderson N. J. Ikkinchi tilni o'rganish va o'qitishda metakognitsiya // *TESOL Quarterly*. — 2002. — 36-jild, 4-son. — B. 617–629.
6. Oxford R. L. Til o'rganish strategiyalari: har bir o'qituvchi bilishi zarur bo'lgan jihatlar. — Boston: Heinle & Heinle, 1990. — 343 b.
7. Harris K. R., Graham S. Metakognitiv strategiyalarni o'qitish va yozuv faoliyati // *Journal of Educational Psychology*. — 1996. — 88-jild, 2-son. — B. 260–275.
8. Schraw G., Dennison R. S. Metakognitiv ongni baholash // *Contemporary Educational Psychology*. — 1994. — 19-jild, 4-son. — B. 460–475.
9. Flower L., Hayes J. R. Yozuvning kognitiv jarayon nazariyasi // *College Composition and Communication*. — 1981. — 32-jild, 4-son. — B. 365–387.
10. Richards J. C. Kommunikativ til o'qitish bugungi kunda. — Kembrij: Cambridge University Press, 2006. — 52 b.
11. Shamov A. N. Chet tillarni o'qitishda metakognitiv strategiyalar // *Maktabda chet tillari*. — 2018. — 6-son. — B. 15–21.
12. Axmedov M. B. Kompetensiyaviy yondashuv asosida chet tilini o'qitish. — Toshkent: Fan, 2020. — 168 b.
13. Qodirova G. Q. Oliy ta'limda talabalar nutq kompetensiyasini rivojlantirish. — Toshkent: O'qituvchi, 2019. — 156 b.
14. Raximov Sh. S. Metakognitiv yondashuvning ta'limdagi o'rni // *Pedagogika*. — 2021. — 4-son. — B. 45–52.
15. Karimova D. S. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) o'qitishda metakognitiv strategiyalar // *Journal of Language and Education*. — 2020. — 6-jild, 3-son. — B. 90–101.
16. Rahmatullayeva N. Chet til ta'limida reflektiv yondashuv. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. — 142 b.